

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY AN'ANALARNI
SHAKLLANTIRISH

Abdimurodova Sevara Baxridin qizi

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Bugungi yosh avlodlarimiz o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy qadriyatlarini sohibi sifatida odob-axloqimiz namunasi asosida ish tutadilar. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida milliy urf odatlarning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.*

Key words: *National traditions, cultural-historical heritage, spiritual upbringing, sense of patriotism, formation of universal values, well-rounded personality*

Annotation: *Today's young generations, as creators of their own history and owners of their own national values, act on the basis of our morals. This article talks about the importance of national customs in the education of children of preschool age.*

Ключевые слова: *Национальные традиции, культурно-историческое наследие, духовное воспитание, чувство патриотизма, формирование общечеловеческих религиозных ценностей, всесторонняя личность*

Аннотация: *Сегодняшние молодые поколения, как творцы собственной истории и обладатели собственных национальных ценностей, действуют на основе нашей морали. В данной статье говорится о значении национальных обычаев в воспитании детей дошкольного возраста. Kalit so'zlar: Milliy urf-odatlar, madaniy-tarixiy meros, ma'naviy tarbiyalash, vatanparvarlik hissi, umumisoniy qadriyatlarni shakllantirish, barkamol shaxs.*

KIRISH

O'zbek oilasining asosiy o'ziga xos xususiyatlari mehmondo'stlik va yoshi kattalarga an'anaviy hurmat-ehtiroimli muomala qilishdir. O'zbeklar odatda bir nechta avlodlardan iborat bo'lgan katta oilalar tarkibida yashaydi. O'zbek xalqining urf-odatlarini asrlar bo'yi o'zbeklar millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an'alarining uyg'unlashuvidagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o'ta o'ziga xos, yorqin va turli-tuman bo'lib, urug'chilik patriarxal munosabatlaridan kelib chiqadi. Urf-odatlarning ko'pchiligi oilaviy hayotga oid bo'lib, bolaning tug'ilishi va tarbiyasi (beshik to'yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to'yi, to'y) bilan bog'liq bo'ladi. .

Adabiyotlar tahlili:

Islom qabul qilinganidan beri ko'pgina oilaviy-maishiy urf-odatlar uning ta'sirida o'zgargan, o'zbeklarning hayotiga musulmon diniy marosimlari kirib kelgan. Juma kuni bayram kuni hisoblanadi. Beshik to'yi – chaqaloqni birinchi marta beshikka solish bilan bog'liq bo'lib, nishonlanadigan marosimli bayramdir. Bu eng qadimgi va O'zbekistronda eng keng tarqalgan marosimlardan biri. Odatda bu to'y chaqaloq tug'ilishining 7-, 9-, 11- kuni o'tkaziladi. Xatna qilish to'yi – islom tomonidan muqaddas

deb e'zozlangan yana bir qadimiy o'zbek odatidir. Bu marosim o'g'il bolalar uchun 3, 5, 7, 9 yoshga kirganda, kamdan-kam hollarda 11-12 yoshda o'tkaziladi. Qur'ondan suralar o'qiladi va oqsoqollar o'g'il bolaga duo o'qiydilar. Shu tariqa bizning o'zbek xalqimiz milliy bayramlarimizni ham katta ishtiyoq bilan, zavq bilan kutib oladilar. Eng muhim davlat bayrami. - Mustaqillik kuni 1- sentyabrda tantanali nishonlanadi. Eng qadimiy xalq bayrami bo'lgan Navro'z bayrami 21 - mart kuni, bahor kun-u-tun tengligi paytida nishonlanadi. Mahalliy xalqlar kiyimlarining o'ziga xosligi azaldan iqlimiy, maishiy sharoitlar va urug'-qabila an'analari bilan belgilanar edi. XIX asrdayoq kiyim, to'nlar, ko'ylaklar, yaktaklar tarixiy xususiyatlarga ega edi: keng, butunligicha bichilgan, uzun kiyim bo'sh tushib turib, inson tanasining shakllarini yashirib turar edi. O'zbekiston xalq amaliy san'atining eng ommaviy va hamma yerda tarqalgan turlaridan biri har doim do'ppi – adrasli qattiq yoki yumshoq qalpoqcha bo'lgan edi. Do'ppi o'zbek milliy kiyimining ajralmas qismi bo'lib, o'zbek xalqining hayoti va an'alariga chuqur kirib borgan. Do'ppi turkcha – “tepa” so'zidan olingan bo'lib nafaqat o'zbeklar, balki boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining ham milliy bosh kiyimidir.

Asosiy qism:

Prezidentimiz 2019-yil 8-mayda maktabgacha ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'sib borayotgan avlodni sog'lom har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayonida samarali usullarini joriy etishga qaratilgan qarori bilan maktabgacha ta'lim uchun bir qator ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan har bir bola bu so'nmas milliylikimiz haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Har bir farzandni ma'naviy jihatdan tarbiyalash ertangi kunimizning poydevori hisoblanadi. Shu kabi milliy an'analarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ma'naviy ildizini rivojlantirish maqsadida har bir bayramlarda bolalarni o'zlari qatnashga holda bayram tadbirlri o'tkazish maqsadga muvofiq. Har bir tarbiyalanuvchi biror bir qahramon bo'lib qatnashishi masalan, yangi yil bayramlarida qaysidir ertak qahramoni bo'lib chiqishi bolani o'z ro'liga bo'lgan, o'sha qahramonga bo'lgan mehrini albatta oshiradi. Bugungi kunda zamonaviylashib milliy udumlarimiz o'z-o'zidan yo'qolib bormoqda. Milliy an'alarimizni saqlab qolish maqsadida bugungi kunda avvalo, o'zimizni milliyashtirish va oila bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab milliy urf-odatlarimizni shakllantirishimiz lozim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Keksa avlod vakillari yoshlarni mehnatga, o'z uyini, ko'chalar, guzar va maydonlarni ozoda tutishga o'rgatardi. Bizda bu urf-odat edi. Endi ayrim odamlar hovlisini bolasiga emas, mardikorga tozalattiryapti kabi gaplarini achinarli gapirib o'tgan edi. Jamiyat moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ifodalash uchun qo'llaniladigan tushuncha bu an'ana, qadiyatlarimiz hisoblanadi. Milliy-ma'naviy qadriyatlar - "milliylik" "ma'naviyat" va "qadriyat" tushunchalari kesishgan nuqtada jamlashgan ijtimoiy xodisalarni o'z ichiga oladi. Deylik ayrim millatlar tarixiy taraqqiyot davomida ishlab chiqarishning ma'lum sohasida yuksak layoqatni shakllantirgan tarbiya, tafakkurning ta'siri yo'nalishiga e'tibor beradi. Milliy xarakterida, hayotga, ijtimoiy hodisalarga munosabatida o'ziga xosliklari bor. Axloqiy, huquqiy, siyosiy madaniyat sohalaridagi xattiharakatlarda ham

ma'lum ijobiy tafovutlar uchraydi. Al-Farobiy fikricha: «Insonning va jamiyatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy yo'nalishga erishuvi inson va jamoaning o'z qo'lidadir». Tabiiy boshlang'ich tarbiya ta'siri ostida kamol topib, insonga aylanishgina kifoya qilmaydi, chunki u inson bo'lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlash qobiliyati va kasb-hunarga muhtojdir. Milliy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilarni yuqorida ko'rsatilganlardek qilib tarbiyalash uchun avlod-ajdodlarimiz yaratgan boy ilmiy-madaniy merosimizni keng va har tomonlama o'rganishimiz, tarbiyaviy soatlar o'tish jarayonida MTT tarbiyalanuvchilari ulardan bahramand etishimiz lozim.

Xulosa:

Xalq tomonidan yaratilgan qomusiy ahamiyatga ega bo'lgan «Pandnoma»lar, xalq og'zaki ijodining turli janrlarida yaratilgan, xalqimiz yuragiga yaqin bo'lgan buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Amir Temur, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Sa'diy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Ahmad Donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi o'nlab buyuk shoir va mutafakkirlar qoldirgan nodir va durdona asarlarida ko'p e'tibor berilayapti. Ular yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga, ilmni puxta egallashlariga alohida e'tibor bilan qarab, mehnat bilan topilgan boylik baxt keltirishini, ilmi kishi xor bo'lmasligini aytib o'tadilar. Buyuk mutafakkirlar o'zlarining ijodlarida o'quvchi-yoshlarni odobli bo'lishga, halol mehnat qilishga, ota-onaga mehribon bo'lishga, halol mehnat bilan yashashga da'vat etadilar. Kelajagimizni mustahkamlash uchun bugundan boshlab harakatimizni to'xtatmasligimiz lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. SH.M. Mirziyoyev "Kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent. 2017-yil.
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent. 2018-yil
3. "Takomillashgan ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Toshkent. 2022-yil
4. "Maktabgacha ta'lim- tarbiya to'g'risida" gi Qonun,.-T.; O'zbekiston. 2020 y.
5. F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, M. A'zamova. "Maktabgacha pedagogika". - T., "Ma'naviyat". 2013